



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MUASSASALARIDA TA‘LIMNI TASHKIL ETISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Saparniyazova Raxima Maxsetbaevna,
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika institutining
tayanch doktoranti
e-mail: raximasaparniyazova3@gmail.com

Annotatsiya: Bugungi kunda hech bir sohani raqamli texnologiyalar, dasturlashtirilgan tizimlar va kompyuterlarsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Xususan, ta‘lim sohasida raqamli texnologiyalarning o‘rni alohida. Bu maqolada ta‘lim jarayonlarida raqamli texnologiyalarning ahamiyati va tashkil etish imkoniyatlari haqida fikr-mulohazalar keltirilgan. Bundan tashqari, maqolada raqamli ta‘limga o‘tishning boshqa afzalliklari to‘g‘risida ham fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: raqamli texnologiya, raqamli iqtisodiyot, dizayn, axborot, aloqa, kompyuter, informatika, multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 5-oktabrdagi farmoniga asosan “Raqamli O‘zbekiston–2030” strategiyasi, shuningdek, 2020-2022-yillarda uni amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Strategiya ikki dasturni: hududlarni raqamlashtirish va tarmoqlarni raqamlashtirishni nazarda tutib, raqamli infratuzilma, elektron hukumat, raqamli texnologiyalar milliy bozori, axborot texnologiyalari sohasida ta‘lim va malaka oshirishni rivojlantirish kabi ustuvor yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi [1]. Global pandemiya boshlanishi bilan raqamli texnologiyalarning roli sezilarli darajada o‘sdi, bu esa raqamli transformatsiyaning, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston uchun muhimligini ko‘rsatdi [2]. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etmoqda. Axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda ta‘lim tizimida raqamli texnologiyalardan foydalanish ta‘lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Biz ilgari ta‘lim dasturlarini an‘anaviy usuli ya‘ni ma‘ruzani yirik hajmli kitoblar va qo‘llanmalar orqali amalga oshirilgan shaklida olib borganmiz. Bu esa o‘z navbatida ta‘lim sifatining u qadar yuqori bolishini ta‘minlamagan. Hozirda ta‘lim sifatini ko‘tarishda ta‘limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan [3]. E‘tibor bersangiz bugungi kunda raqamli texnologiyalar faoliyatdagi bir qator muammolarni, shu jumladan, avtomatlashtirish, boshqaruv xarajatlarini kamaytirish, bozor ehtiyojlarini yoritish, kasbga yo‘naltirish jarayonlari, iqtisodiy va istiqbolli natijaga erishish usulini hal qilishda yordam beradi. Raqamli texnologiyalarga o‘tish deganda, kompyuterlar va bilimlarga asoslangan



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍŇ INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

holda jamiyat va iqtisodiyot rivojlanishining butunlay yangicha turini barpo etishni tushunamiz. Raqamli texnologiyalarga o'tish jarayonining asosiy tarkibiy qismlari sifatida ma'umotlar bilan ishlashni amalga oshirib beradigan mobil ijtimoiy tarmoqlar, sensor tarmoqlar hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini misol sifatida ko'rsatish mumkin [4]. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta'lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi [5]. Bugun ular bilan ta'lim tizimining qurollantirilishi o'quvchilarga dars mashg'ulotlarini sifatli o'tilishini ta'minlaydi. Bugungi pandemiya sharoiti ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar qo'llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta'limga o'tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo'ladi. Bu jarayon o'quvchiga uydan chiqmay turib ham ta'lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta'limga o'tishning boshqa afzalliklari to'g'risida ham fikr yuritadigan bo'lsak ularga quyidagilarni kiritish o'rinlidir:

O'quvchilar xohlagan joyida va xohlagan vaqtda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi;

- o'quvchilar mutaxasis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi;

-internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi;

-ta'lim tizimini yangi bosqichga ko'taradi;

-vaqt va mablag' sarfini keskin kamaytiradi;

Bugun mamlakatimizning barcha xududlarida ham internet tezligi yetarli emas. Bu esa o'z navbatida raqamli ta'lim tizimiga o'tishga to'sqinlik qiladi. Buni bartaraf etish uchun esa hukumat darajasidagi katta ishlar amalga oshirish talab etiladi. Bugungi kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamqadam odimlashni taqozo etadi. Zamonaviy dunyoning axborot muhiti boshqa texnik vositalardan, masalan, televizorlar va videomagnitofonlar, foto va videokameralar, telefon apparatlari va ko'plab boshqalar ham foydalanadi. Wi-Fi zonalar IT parklar ochilishi raqamli ta'lim tizimini yuksalishiga xizmat qiladi. Raqamli ta'limning joriy etilishi o'qituvchilar orasida ishsizlikni keltirib chiqarishi extimolini yuzaga keltiradi, ammo buni ham bartaraf etish imkoni mavjud. Buning uchun o'qituvchilarni raqamli texnologiyalar bilan ishlash qobiliyatini o'stirish va internet orqali turli ochiq kurslar tashkil etish orqali bandligini ta'minlash mumkin. Bunda nafaqat mamlakatimizdagi balki chet eldagi qator ta'lim oluvchilarni ham jarayonga jalb etish imkoni bo'ladi. Bu o'z navbatida



«ÚZLIKSIZ BILIMLENDIRIW SISTEMASÍDA ARALÍQTAN OQÍTÍWDÍN INTEGRACIYASÍ»

atamasındaǵı IV Xalıqaralıq ilimiy-teoriyalıq konferenciya

mustaqil mablag‘ topish imkonini bersa, ikkinchidan o‘qituvchini o‘z ustida ko‘proq ishlashi va raqobat tufayli ta‘lim sifatini yanada ortishiga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni turli sohalarga nafaqat ta‘lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta‘lim tizimini modernizatsiya qilishda kata rol o‘ynaydi. Ta‘lim sohasida raqamli texnologiyalar o‘quvchilarning bilim olish uslubini o‘zgartiradi. Sinf xonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarga bilimlarni yaxshiroq o‘zlashtirish va qiyin tushunchalarni tasavvur qilish orqali o‘rganishga yordam beradi. Zamonaviy ta‘limni tashkil etish va ta‘lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020-yildagi PF-6079-son
2. O.Kuysinov, I.Kunnazarov, Z.Saparniyazova, R.Saparniyazova, O.Kunnazarov “Role of Digital Technologies in Education”, “Journal of positive School Psychology” Scopus Journal. <https://journalppw.com/> ISSN No: 1953-1958 VOLUME 6 , №7. – 2022 3209-3225p.
3. O.Kuysinov, M.Jurayev “Description of the methodological basis for ensuring interdisciplinary continuity of the subject “computer science and information technology” in vocational education” “NOVATEUR PUBLICATIONS” Journal NX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No:2581-4230 VOLUME 7, ISSUE 10, Oct. -2021, 223-225 p.
4. Saparniyazova Z. M., Saparniyazova R. M. Raqamli texnologiyaning ta‘lim berishdagi o‘rni. Mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii «Renessans v paradigme novatsiy obrazovaniya i texnologiy v XXI veke». – Nukus.25-may/2022g.C_282-284.
5. Osimjon Nasimxon o‘g‘li Mahmudov “SCIENTIFIC PROGRESS” Scientific Journal ISSN: 2181-1601 /Volume: 1, ISSUE: 6